



MAKTAB TA‘LIMINI RIVOJLANTIRISH DAVLAT UMUMMILLIY
DASTURI VA UNING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i02.104>

Mamasaidov Lutfillo Payzullo o‘g‘li
University of Business and Science dotsenti
E-mail: lutfillomamasaidov2@mail.ru
ORCID: 0009-0004-3573-6787

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikas Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-iyuldagi 321-sonli qarori asosida “Maktab ta‘limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi” doirasida olib borilgan ishlar va erishilgan natijalar, yangi maktablarning barpo etilishi, maktablarni joriy va kapital ta‘mirlash ishlar hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim sohasi, maktab, moddiy-texnik baza, zamonaviy maktab, joriy, kapital ta‘mirlash.

Аннотация. В данной статье освещены работы, проведённые в рамках «Государственной общенациональной программы развития школьного образования», реализуемой на основе постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан № 321 от 9 июля 2004 года, а также достигнутые результаты, строительство новых школ, текущий и капитальный ремонт образовательных учреждений и допущенные недостатки.

Ключевые слова: сфера образования, школа, материально-техническая база, современная школа, текущий и капитальный ремонт.

Annotation. This article highlights the work carried out and the results achieved within the framework of the “State Nationwide Program for the Development of School Education,” implemented on the basis of Resolution No. 321 of July 9, 2004, adopted by the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. It also covers the construction of new schools, current and major repairs of educational institutions, and the shortcomings identified in the process.

Keywords: education sector, school, material and technical base, modern school, current and major repairs.

Kirish. Ta‘lim sohasini isloh etish har davrning eng muhim masalalaridan biri hisoblangan. Barcha davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlarini rivojlantirishda ta‘lim tizim, birlamchi manba bo‘lib xizmat qiladi

O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sohasini rivojlantirishda dastlabki yillarda maktablar moddiy-texnik bazasini yaxshilash, maktablarni zamonaviy ko‘rinishga olib kelish bo‘yicha, keng ko‘lamli ishlar tashkil etilib, buning zamirida Sovet hukumati davrida ta‘lim sohasidagi yo‘qotishlarni qayta tiklash ishlariga katta e‘tibor berildi. XX asr 80 yillarning o‘rtalarida boshlangan iqtisodiy inqiroz mustamlaka hududlar qatori O‘zbekistonga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmagan. Ushbu davrda maktablarni joriy va kapital ta‘mirlash yoki yangi maktablar qurish ishlariga davlat tomonidan e‘tibor berish pasayib, ta‘lim sohasi qoldiq prinsip sifatida e‘tibor berilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

O‘zbekistonda xalq ta‘limi tizimining rivojlanishi bo‘yicha bugungi kunga qadar ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Bulardan: Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Mazkur yillarda xalq ta‘limitizimida olib borilgan ilmiy tadqiqotlariga quyidagilarni keltirishimiz mumkin. Masalan, Yo‘ldoshev J. “Ta‘limimiz istiqboli yo‘lida” nomli kitobida mustaqillikning dastlabki yillarida ta‘limning sohalari qatori maktab ta‘limida amalga oshirilgan islohotlar haqida atroflicha ma‘lumotlar berilgan.

Qurbonov M. “Ezgu g‘oyalar ro‘yobi” nomli kitobida O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan to 2000-yillargacha bo‘lgan davridagi maktab ta‘limi sohasidagi olib borilgan islohotlar, ta‘lim sohasidagi zamonaviy me‘yorlarning qabul qilinishi, maktablar moddiy-texnik bazasidagi o‘zgarishlar haqida bayon qilingan.

Bevosita tadqiqot mavzusiga a‘loqador hisoblangan T.Xatamovning “O‘zbekiston umumta‘lim maktablari ta‘lim islohotlari tizimida: muammolar yechimi va istiqboli (1991–2009-yy.)” mavzusidagi dissertatsiyasida respublika umumta‘lim maktablari tizimida dastlabki yillarda olib borilgan islohotlar, maktab ta‘limi sohasidagi chet davlatlar xamkorlik a‘loqalari hamda dastlabki yillarda maktab ta‘limi sohasidagi moddiy-texnik bazasidagi kamchiliklar haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Natijalar

Umumiy o‘rta ta‘lim tizimini tubdan yaxshilash, eng yuksak, zamonaviy talablarga javob beradigan o‘quv-moddiy bazasini va ta‘lim standartlarini shakllantirish, qishloq va shahar maktablarining moddiy bazasi hamda jihozlanishidagi tafovutlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish asosida bolalarni o‘qitish uchun teng shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-iyuldagi 321-sonli qarori asosida “Maktab ta‘limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi” ishlab chiqildi. Unga ko‘ra,

umumta‘lim maktablari binolarini va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini tubdan yangilash va kapital rekonstruksiya qilish;

maktablarni zamonaviy o‘quv va o‘quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va o‘quv-uslubiy materiallar bilan jihozlash;

ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlarini takomillashtirish;

umumta‘lim maktablarini malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, o‘qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish, ular mehnatini rag‘batlantirishni kuchaytirish;

umumta‘lim maktablari sport bazasini mustahkamlash va ularda sportni rivojlantirish[1.5].

Mazkur dasturga binoan, 2004–2009-yillarda buzib tashlanadigan umumta‘lim maktablari o‘rniga yangilarini qurish, kapital rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta‘mirlash tadbirlari ishlab chiqildi.

Shuningdek, dasturda umumta‘lim maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va maktablarni zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlash, darsliklar va o‘quv-uslubiy materiallar, pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, o‘qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, ularning mehnatini rag‘batlantirishni kuchaytirish tadbirlari aniq belgilab berildi. 2005–2006-yillarda respublikada 116 ta yangi maktab qurilib, 669 maktab kapital rekonstruksiya qilindi, 1290 maktab ta‘mirlandi, bolalar sport inshootlari qurilib, foydalanishga topshirilgan[2.219].

Muhokama

“Maktab ta‘limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi”ga asosan, 2004-2009-yillarda davomida viloyatdagi maktablarda amalga oshiriladigan ishlar uchun davlat mablag‘lari hisobidan 1 trillion 200 milliard so‘m ajratilgan[3.2].

Respublika bo‘yicha dastur asosida 115000 o‘quvchi o‘rniga ega bo‘lgan 325 ta yangi maktab qurilishi, 780000 o‘quvchi o‘rniga ega bo‘lgan 2313 ta maktab binosini kapital rekonstruksiya qilish, 2 mln o‘quvchi o‘rniga ega 3769 ta maktab binosi mukammal ta‘mirlash, 2069 ta maktab binosi joriy ta‘mirlash, 1430 ta sport inshootlari barpo etilishi rejalashtirilgan[4.4].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-oktyabrdagi 2005-2009-yillarda umumta‘lim maktablarinimebel, zamonaviy o‘quv-laboratoriya asbob-uskunalari, kompyuter texnikasi va sport anjomlari bilan jihozlash dasturi to‘g‘risida 493-sonli qaroriga asosan Namangan va Farg‘ona viloyatlariga kompyuter texnikalari yetkazib berilgan.

Respublika bo‘yicha 2006-yilda jami 1317 ta shu jumladan 61 yangi maktab binolari qurish, 382 ta maktab binolarini kapital reskonstruksiya qilish, 530 ta maktab binolarini kapital va 344 ta maktab binolari joriy ta‘mirlash rejalashtirilgan. Bu ishlarga maktab ta‘limi jamg‘armasi tomonidan jami 207.7 mlrd so‘m, shu jumladan yangi qurilishga 41.8 mlrd so‘m, kapital reskonstruksiya 109.7 mlrd so‘m, kapital ta‘mirlashga 46.6 mlrd so‘m va joriy ta‘mirlashga 9.6 mlrd so‘m mablag‘ ajratish ko‘zda tutilgan.

Qurilish va ta‘mirlash ishlari 1-mart holatiga yangi maktablar qurilishi respublika bo‘yicha 17 foizga bajarilgan holda Toshkentda 4.9 foiz, Andijon 5.1 foiz, Surxondaryo 5.3

foiz, Namangan 7.4 foiz va Xorazm viloyatlarda 9 foizga bajarib qoloqlikka yo‘y qo‘ygan. Kapital rekonstruksiya ishlari esa Toshkent 8.5 foiz, Xorazm 10.7 foiz, Surxondaryo viloyatlari 11.8 foiz va Tishkent shahri 14.5 foizga bajarib, respublika ko‘rsatgichi 20.7 foizni tashkil etgan[5.38].

Maktab ta‘limini rivojlantirish umummilliy darsturi doirasida Buxoro viloyatida 2007-yilda 1166 o‘rinli 1 ta yangi maktab binosi, 4745 o‘rinli 15 ta maktablarda kapital reskonstruksiya va 13958 o‘rinli 25 maktablarda kapital ta‘mirlash ishlari bajarilishi rejalashtirilgan.

Maktab ta‘limini rivojlantirish maqsadida YUNECO tashkilotiga a‘zo davlatlarning “Ta‘lim hamma uchun” Umumjahon deklaratsiyasi (Jomten-1990) hamda Xalqaro ta‘lim forumi (Dakar-2000 y) doirasida ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarga erishish ta‘lim islohotlarini olib borishda o‘zaro fikr va tajriba almashish maqsadida 2002-yilda buyon Markaziy Osiyo va Qozog‘iston respublikalarining ta‘lim vazirliklari ishtirokida ta‘lim forumlari o‘tkazilib kelinmoqda[6.56].

2006-yilda O‘zbekistonda “Ta‘lim-2006” ko‘rgazmasi tashkil etilgan. Unda 60 dan ziyod o‘quv muassasalar ko‘rgazmada ishtirok etish istagini bildirgan. Ushbu ko‘rgazmada respublikada ta‘lim sohasiga oid bo‘lgan anjomlar, sport hamda o‘quv qurollari va mebel jihozlarini namoyish etgan. Ko‘rgazmada Rossiya, Qozog‘iston, Yaponiya, Turkiya mamlakatlarining o‘quv muassasalari ishtirok etgan[7.77].

“2004-2009-yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish Davlat umummilliy darsturi”ni amalga oshirishni ta‘minlash maqsadida ta‘lim tizimiga 170.6 mln AQSH dollari miqdorida investitsiya va grand mablag‘lari jalb qilingan. Bu ishlarni Osiyo taraqqiyot bankining direktorlar kengashi 2006-yilda Xalq ta‘limiga vazirligiga texnik ko‘mak berish ishlari amalga oshirilgan[8.73].

Qo‘qon shahrida joylashga 27-sonli maktabda 2008-yilda tamirlash ishlari o‘z vaqtida bajarilmasdan 2 yilga cho‘zilganligi ushbu maktabdagi 1900 nafar o‘quvchilar qisman boshqa maktablarda, qolganlari esa umuman maktabga borishmayaptirganligi yuzasidan Oliy majlis deputati Ahmedov Abbas Yadgorovichdan murojaat yo‘llangan[9.32]. Ushbu murojaatga muvofiq 2008-yil 11 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ta‘lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy muhofaza masalalari axborot – tahlil departamenti mudiri A.Jabborov tomonidan yo‘llangan javob xatida ushbu masalani chuqur va har tomonlama o‘rganish bo‘yicha vazirlik va idoralarga topshiriq berilganligi keltirilgan[10.43].

“2004-2009-yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish Davlat umummilliy darsturi”ni amalga oshirishi boyicha 2008-yilda respublikada 1875 ta jumladan, 70 ta yangi maktablar qurish. 584 tasi kapital rekonstruksiya qilish, 791 ta maktablar kapital va 430 maktablar joriy ta‘mirlash ko‘zda tutilgan. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun 362 mlrd so‘m, shundan, Maktab ta‘limi jamg‘armasidan 351 mlrd so‘m, Islom taraqqiyoti banki hisobidan 15 yangi maktab qurilishi uchun 11 mlrd so‘m mablag‘ ajratish ko‘zda tutilgan.

Qurilish va ta‘mirlash ishlari respublikada 2008-yilda 20 apreliga qadar 43.7 foizni tashkil etgan va bu maqsadlarni amalga oshirish uchun 105.7 mlrd so‘m mablag‘lari yo‘naltirilgan. Biroq ayrim hududlarda ta‘lim obyektlarini qurilish va ta‘mirlash ishlari sust amalga oshiriladi. Masalan, Buxoroda 25 foiz, Xorazm 30.6 foiz, Surxondaryo 4.3 foizga bajarilgan[11.49].

Qiziqarli tomoni mazkur yilda dasturga kiritilga Samarqand viloyatidagi 61 ta maktabning 37 tasining binolari xom g‘isht va paxsadan qurilganligi sababli, ularni kapital ta‘mirlash mumkin emasligi bo‘yicha hududiy arxetuktura tomonidan xulosa berilgan. Mazkur maktablarga qo‘shimcha binolar qurish va kapital ta‘mirlanishi uchun qo‘shimcha ravishda 4.7 mlrd mablag‘ talab etilishi nazarda tutilgan bo‘lsa, buning uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-dekabrda PQ-744-sonli qaroriga asosan Mahalliy byujed mablaridan Maktab ta‘limi jamg‘armasiga 19.2 mlrd so‘m mablag‘ o‘zlashtirish rejalashtirilgan bo‘lsa-da bu yilda 17.9 mlrd so‘z o‘zlashtirilgan.

2008-yilda esa 1.3 mlrd o‘tgan yilgi qoldiq summa bilan hisoblaganda Mahalliy byujed mablag‘laridan 20.5 mlrd mablag‘ Maktab ta‘limi jamg‘armasiga yo‘naltirilishi lozim bo‘lgan. Mahalliy byujed mablag‘larini Maktab ta‘limi jamg‘armasiga yo‘naltirishda Jizzah, Namangan, Navoiy, Surxondaryo va Samarqand viloyatlari suskashlik qilgan.

Bolalar sportini rivojlantirish maqsadida 2008-yilda jami 186 ta (2 ta 2007-yildan o‘tuvchi inshoot), shu jumladan 13 ta yangi sport inshootlari, 166 ta maktab sport zallarini qurish hamda 7 ta mavjud inshootlarni rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan.

Davlat dasturi doirasida 2008-yilda qurilish va ta‘mirlash ishlari tashkil etilgan maktablarni kompyuter texnikasi bilan ta‘minlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Bu borada 1686 ta umumta‘lim maktablarini kompyuter texnikasi bilan jihozlash rejalashtirilgan bo‘lsa, Xitoy xalq respublikasi Xukumatining imtiyozli krediti xisobidan 118 ta, Koreya Hukumatining imtiyozli krediti hisobidan 1253 ta, Maktab ta‘limi jamg‘armasi mablag‘lari xisobidan 316 ta kompyuter texnikasi olingan[12.201-203].

Maktab ta‘limini rivojlantirish Davlat umummilliy darsturida keltirilgan vazifalar yuzasidan ya‘ni 2008-2009-yillarda umumta‘lim maktablarini jixozlanishi bo‘yicha Qashqadaryo viloyatida shu yillarda viloyatda yangi qurilgan va ta‘mirlangan 50 ta maktablarda tekshirish ishlari olib borilganda, ularning 25 tasida jami 158.8 mln so‘mlik mebel va jihozlar ehtiyojdan ortiqcha yetkazilganligi aniqlangan. Viloyatning Qamashi tumanidagi 53-sonli, Qarshi tumanidagi 43-sonli, Chiroqchi tumanidagi 131-sonli, va Kitob tumanidagi 3-sonli maktablarda ustaxona mavjud bo‘lmasada, joriy yil jihozlash dasturi bo‘yicha maktablarni ustxona jihozlari bilan ta‘minlash ko‘zda tutilgan[13.268].

Huddi shunga o‘xshash kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligi oqibatida Buxoro viloyati 51 ta maktabning 15 tasida 109.1 mln so‘mlik, Navoiy viloyatidagi 42 tadan 8 tasida 37.7 mln so‘mlik, Samarqand viloyatida 51 tadan 6 tasida 34.1 mln so‘mlik mebel va jihozlar ehtiyojdan ortiqcha ekanligi aniqlangan. Yuqorida qayd etilgan kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan

ta‘lim sohasida rahbar xodimlarga nisbat lavozimdan ozod etish chorasi ko‘rilgan[14.221-222].

Umuman olganda “Maktab ta‘limini rivojlantirish Davlat umummilliy darsturi”da doirasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ya‘ni yuqorida keltirilganidek, 2004-2009-yillar oralig‘ida respublikada 325 ta maktab yangiddan barpo etildi, 780 391 nafar o‘quvchil o‘rniga ega maktablarda kapital rekonstruksiya ishlari amalga oshirilgan bo‘lsa, 1 mln 992 877 nafar o‘quvchi o‘rniga ega maktablarda kapital ta‘mirlash ishlari, 2069 ta maktablarda joriy ta‘mirlash ishlari bajarildi.

Qiziqarli tomoni bu dastur doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasida 33 ta, Toshkent viloyatida 38 ta, Samarqand viloyatida 35 ta, Jizzah viloyatida 24 ta va dasturda eng katta e‘tibor berilgan Qashqadaryo viloyatida 115 ta yangi maktab binolarini qurilishiga sabab bo‘ldi[15.125]. Bu orqali ushbu viloyatlarda maktab ta‘limi va undagi sifat ko‘rsatgichlari yanada yuksaldi.

Jumladan, Maktab ta‘limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi doirasida 2005-2009 yillar davomida jami 8541 ta umumta‘lim maktabining 4 3558 ta chet tilillari xonasi, 6 890 ta kompyuter sinflari, 6 962 ta fizika laboratoriyalar 5 155 ta kimyo va biologiya laboratoriyalari, 3 934 ta sport zali, 1 854 ta faollar zali, 116 ta yotoqxona va 13 102 ta ma‘muriy-metodik xonalari mebel, o‘quv-laboratoriya asbob-uskunalari, kompyuter texnikalari, sport anjomlari hamda maxsus jihozlar bilan jihozlandi. Shuningdek, umumta‘lim maktablaridagi “Fizika” o‘quv laboratoriya sinf xonalari soni 28,0 foizdan 66,8 foizga, “Ximiya” o‘quv laboratoriya sinf xonalari 27,0 foizdan 64,2%ga, "Biologiya" o‘quv laboratoriya sinf xonalari 27,0 foizdan 64,2 foizga oshdi[16.5].

Yuqoridagi islohotlar natijasida 2009-yil holatiga ko‘ra, Respublika umumta‘lim maktablarida o‘qitish asosan, 1 va 2 smenada tashkil etilgan edi. Jami maktablarning 64,7 foizida ta‘lim jarayoni ikki smenada, 35,5 foizida esa bir smenada olib borilardi. Shu bilan birga, 30 ga yaqin maktablarda o‘qitish uch smenada bo‘lib, ularning asosiy qismi qishloq hududlarida joylashgan edi[17.32].

Shu o‘rinda, xalq ta‘limi tizimida amalga oshirilga o‘n yillik davr hususida so‘z borganda mamlakatimiz katta natijalarga erishgan, tarixga nazar tashlasak 2008-yilda butun dunyoda moliyaviy iqtisodiy inqroz yuzaga kelishi va buni dunyo davlatlari qatori O‘zbekistonga o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Ammo shunday bo‘lsa-da ko‘plab sohalar qatorida ta‘lim sohasida islohotlar rivojlanishda davom etgan.

Xulosa.Keyingi yillarda davlatimiz iqtisodiy salohiyatining rivojlanishi mamlakatda barcha sohalar qatori, xalq ta‘limining ham rivojlanishiga olib keldi. Mamlakatda 2004–2009-yillar davomida Birinchi Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan viloyat hamda respublikadagi barcha maktablar yangi qiyofaga ega bo‘ldi. Shuningdek, dastlabki yillardan boshlab 2016-yilga qadar respublikada 1200 tadan ortiq yangi maktablar barpo etildi. Yoki

mazkur yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi umumta’lim maktablari ilg‘or rivojlangan o‘quv-metodik jihozlar va adabiyotlar bilan boyidi.

Ushbu davrda maktablarni yanada rivojlanishiga davlat tomonidan qabul qilingan dasturlar va investitsiya mablag‘larining roli katta bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida, yoshlarning ilm-fan cho‘qqilarini egallashda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu qisqa bosib o‘tilgan yillar mobaynida O‘zbekiston xalq ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar umumta’lim maktablari va maktabdan tashqari ta’lim tizimida ham ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. O‘quvchilarning bilim darajasi yanada oshdi, natijada jahon tajribasini keng ko‘lamda o‘rganish, yangiliklar va yutuqlarni ta’lim tizimiga joriy etish mamlakat taraqqiyoti hamda rivojlanishida muhim qadam bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. “2004-2009 йилларда Мактаб таълимини ривожлантириш давлат умуммиллий дастурини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”. 321-сон Қарори. <https://lex.uz/docs/338164>
2. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi. Milliy istiqlol davri. – Toshkent, 2007. – B. 219.
3. Аҳлидинов Р. Билим сифати – таълим самарадорлигининг бош мезони // Uzluksiz ta’lim. – 2005. – №2. – Б. 6.
4. Жўраев Т. Узлуksиз таълим: муаммолар ва ечимлар // Uzluksiz ta’lim. – 2005. – №1. – Б. 4.
5. ЎзМА. М-37 фонд, 4-рўйхат, 574-иш, 38-варақ.
6. ЎзМА. М-37 фонд, 4-рўйхат, 574-иш, 56-варақ.
7. ЎзМА. М-37 фонд, 4-рўйхат, 574-иш, 77-варақ.
8. ЎзМА. М-37 фонд, 4-рўйхат, 569-иш, 73-варақ.
9. ЎзМА. М-37 фонд, 4-рўйхат, 1237-иш, 32-варақ.
10. ЎзМА. М-37 фонд, 4-рўйхат, 2137-иш, 43-варақ.
11. ЎзМА. М-37 фонд, 4-рўйхат, 2137-иш, 49-варақ.
12. ЎзМА. М-37 фонд, 4-рўйхат, 2138-иш, 203-варақ.
13. ЎзМА. М-37 фонд, 4-рўйхат, 2138-иш, 268-варақ.
14. ЎзМА. М-37 фонд, 4-рўйхат, 3076-иш, 125-варақ.
15. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. “2004-2009 йилларда Мактаб таълимини ривожлантириш давлат умуммиллий дастурини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”. 321-сон Қарори. 2-ilova. <https://lex.uz/docs/338164>
16. ХТВ жорий архиви. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлигининг 2010 йил 8 декабрь 12/3 сонли Хайъат мажлиси қарори. –Б. 32.
17. Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон қишлоқлари..... – Б. 150.